

QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH VA ISLOH QILISH MASALALARI

Meyliev Obid Raxmatullayevich

Toshkent moliya instituti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).

Gofurova Kamola Xayrulla qizi

Toshkent moliya instituti moliya
fakulteti talabasi

Hozirgi kunda mamlakatimizni “Yangi O‘zbekiston” hamda “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi” deb atalgan strategiyalar orqali xalqaro maydonda o‘z o‘rnini mustahkamlashga va boshqa chet davlatlar bilan bo‘lgan aloqalarni oshirishiga katta ahamiyat berilmoqda. Yangi O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy munosabatlarini yanada rivojlantirish, yangi demokratik davlat sifatida ko‘rish uchun, alohida soha va tarmoqlardan tashqari qishloq xo‘jaligiga ham e‘tibor qaratilishi lozim.

Negaki qishloq xo‘jaligi barcha davrlarda inson hayotining ijtimoiy va iqtisodiy tarmog‘ida alohida o‘z o‘rniga ega. Ayniqsa, 21-asrda ta‘lim va texnologiyaning rivojlanishi qadimda bedavo bo‘lgan kasalliklarga ham shifo topishga imkon bermoqda, buning natijasida esa yer yuzida odamlar sonining oshishi va iste‘mol tovarlariga bo‘lgan talabni ko‘tarilishini ko‘rsatmoqda. Ayni vaqtda Janubiy Koreya va Yaponiya davlatlarining bu soha muammolarini hal qilishda foydalanayotgan strategiyasi ko‘p sonli aholiga ega bo‘lgan davlatlarga andoza vazifasini bajarmoqda. Yil ekinlarini bir yilning o‘zida 4 marotaba ekish, turli xil texnologiya va dori vositalaridan foydalangan holda hosil unumdorligini oshirish kabilar shular jumlasidandir.

Yangi O'zbekistonni yaratishda qishloq xo'jaligiga ham salmoqli e'tibor qaratilmoqda. 2019-yilning 23 noyabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda³³.

Quyida keltirilgan ustuvor yo'nalishlar strategiyaning bosh islohatchisiga aylanib ulgurgan bo'lib, bularga:

✚ Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag'batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo'shilgan qiymatli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish;

✚ Fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlash;

✚ Qishloq xo'jaligida ilmiy-tadqiqot, ta'lim va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilim va ma'lumotlarni tarqatishning samarali shakllarini qo'llashni nazarda tutuvchi ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish kabilar bular jumlasiga kiradi.

Qaror qabul qilinganidan so'ng, ko'p o'tmasdan pandemiya boshlanishiga qaramsdan ta'sis etilgan strategiya asosida olib borilgan ishlar natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda o'sish ko'zatilgan.

³³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5853 sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni// <https://lex.uz/docs/-4567334>

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdori, (mlrd. so'mda)³⁴

t/r	Hududlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
1	Qoraqalpog'iston Res-si	6562,9	8208,1	9751,6	11511,8	13389,0
2	Andijon viloyati	19606,3	23686,7	26096,1	30413	35811,3
3	Buxoro viloyati	17064,6	19182,1	23876	28529,3	33255,9
4	Jizzax viloyati	11448,2	13720,1	16352,8	20471,1	23081,6
5	Qashqadaryo viloyati	17206,5	19933,9	23777,8	28275,6	32227,2
6	Navoiy viloyati	8299,8	9467,8	11309,7	14547,2	15266,7
7	Namangan viloyati	12639,6	15509	17913,1	21596,1	25117,9
8	Samarqand viloyati	25658	28379,5	32158	38549,7	41833,9
9	Surxondaryo viloyati	15046,2	17844,1	19424	23415,5	27474,1
10	Sirdaryo viloyati	5654,3	7401,5	8002	9755	11465,3
11	Toshkent viloyati	18359,1	20417,1	23875,1	29538,3	32880,1
12	Farg'ona viloyati	17457,1	18532,2	21455,5	27501,2	32457,4
13	Xorazm viloyati	12423	14001	16258,9	19311,7	23304
	Respublika bo'yicha	187425,6	216283,1	250250,6	303415,5	347564,4

Yuqorida keltirilgan jadval malu'motlariga ko'ra, 2018-yildan boshlab joriy yilga qadar mamlakatimiz hududlari kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilishi o'sib borgan. Shunga qaramasdan hududlar kesimida Qoraqalpog'iston Respublikasida yetishtirilgan mahsulotlar soni 13 389,0 mlrd so'mda ifodalangan, Navoiy va Sirdaro viloyatlarida esa mos ravishda 15266,7 va 11465,3 mlrd so'mni tashkil etgan.. Bu vaqtning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlar hajmining yuqori ko'rsatkichlari Samarqand (41833,9 mlrd so'mda), Andijon (35811,3 mlrd so'mda),

³⁴ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

Buxoro (33255,9 mlrd so'mda), Toshkent (32880,1 mlrd so'mda) viloyatlarida qayt etildi.

Samarqand va Toshkent viloyatining qishloq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi bo'yicha Respublikada yetakchi o'rinni egallashi, mazkur hududning go'sht, sut, tuxum va shu kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida yuqori ulushga ega bo'lganligi bilan izohlanadi. Aksincha go'sht, sut, tuxum va sabzavotlar kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlar orasida Sirdaryo, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi kam ulushga ega ekanligini qayd etish lozim.

Bir muncha o'sish suratlari o'tgan joriy yilda Qashqadaryo (32227,2 mlrd so'mda), Surxondaryo (27474,1 mlrd so'mda) hamda Farg'ona(32457,4 mlrd so'mda) viloyatlarida aks etgan bo'lib, aksincha, Jizzax (23081,6 mlrd so'mda) va Xorazm (23304 mlrd so'mda) viloyatlarida nisbatan past o'sish suratlari kuzatildi.

Qishloq xo'jaligi unumdorligini oshirish, chet davlatlarning ayni vaqtda foydalanayotgan texnik va amaliy dasturlaridan foydalanish mamlakat YAIM hajmining oshishiga iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirishga yordam beradi. Buning uchun bu soha tarmoqlarida nafaqat mahsulotni yetishtirishning samaradorligini oshirish va shu birgalikda mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan quyidagi omillarga ham katta e'tibor qaratilishi lozim. Bu omillarga quyidagi keltirilgan yo'nalishlar kiradi:

- mavjud uskunalarni modernizatsiya qilish,
- mahsulot sifatini yaxshilash;
- materiallar, yoqilg'i va energiyadan foydalanishni yaxshilash;
- xom ashyo va materiallarning yanada samarali turlarini joriy etish;
- ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi;
- ayrim turdagi mahsulotlar ulushining o'zgarishi shular jumlasidandir.

Nafaqat mahsulot unumdorligini oshirish va bundan tashqarimehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar, jumladan, ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirish va ishlab chiqarish hajmida o'zgartirishlarni joriy etish qishloq xo'jaligining keyingi yillar mobaynida yanada rivojlanishiga va shu bilan

birgalikda bunday islohatlar natijasida YAIM hajmini oshirish kabi dolzarb muammo va masalalarning yechim topishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Chunki qishloq xo'jaligi nafqat aholining turli qatlamini ijtimoiy va iqtisodiy ne'matlar balki bandlik bilan ham ta'minlab beruvchi yirik tarmoqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5853 sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni*⁰. <https://lex.uz/docs/-4567334>
2. *To'rayeva G.Q. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti rivojlanishida mahsulot tannarxini pasaytirish omillari"// Analytical Journal of Education and Development. Volume: 02 Issue: 01 | 2022-year//www.sciencebox.uz*
3. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>
4. <https://www.agro.uz/qishloq-xojaligini-rivojlantirish-2020-2030-yillarga-moljallangan-strategiyasi>.